Mavzu: Bolaning o`sishi va rivojlanishi.

8- sinf uchun

Odam va uning salomatligi

REJA:

Odam organizmining rivojlanish davrlari.

Chaqaloqlik davri

Go`daklik davri

Maktabgacha tarbiya davri


Maktab yoshi davri

Odam organizmining rivojlanish davrlari.

- Ona suti chaqaloqqa juda foydali bo`lib ,uning tarkibida chaqaloqning sog`lom o`sishi uchun zarur bo`lgan barcha moddalar mavjud. Chaqaloq tug`ilgandan so`ng 16-18 yoshgacha bolalik, 16-21 yosh yigitlik yoki novqironlik, 22-60 yosh yetuklik 60-75 yosh keksalik va 75 yoshdan yuqorisi qarilik davri deb ataladi.


Chaqaloqlik davri.

- Bu davrda bola tug`ilgandan boshlab bir oylik muddatni o`z ichiga oladi.
- Bola tug`ilgandan kichik qon aylanish doirasi ishlay boshlaydi.




Chaqaloqlik davri

- Bu davrda yana-nafas olish



Chaqaloqlik davri

Ovqat hazm qilish sistemalari ishlay boshlaydi.




Go`daklik davri

Bu davr bir oydan boshlanib ,bir yoshgacha davom etedi. Bir oylik bola chiroqqa , qimirlayotgan narsalarga qaraydi . Uch oylikda tovush chiqqan tomonga boshini buradi va kuladi , onasi va o`yinchoq tomongatalpinadi,boshini tik tutadigan bo`ladi. Bola 5 oylik bo`lganida o`z yaqinlarini taniy boshlaydi, ularni ko`rganda kuladi va qiyqiradi. 6-7 oylikda bolaning sut tishlari chiqa boshlaydi. 8 oyligida narsalarga taya nib  o`rnidan turadigan bo`ladi. 11 oylik bola bir necha oddiy so`zlarni gapira oladi, yetaklasa yuradi.Bir yoshda bola yuradi va 10-12 ta so`zlarni gapira oladi. Go`daklik davrida bola juda tez o`sadi , tanasining vazni ham tez ortadi va organlari takomillashib boradi.

Go`daklik davri

Chaqaloqning umurtqa pog`onasida egiklik bo`lmaydi. Umurtqa pog`onasi bo`yin qismidagi egiklik go`dak boshini tuta boshini tuta boshlaganida , ko`krak egikligi o`tiradigan bo`lganida , bel egikligi o`tiradigan bo`lganida,bel egikligi yura boshlaganida paydo bo`ladi



Maktabgacha tarbiya davri


Bu davr 1 yoshdan 6-7 yoshgacha davom etadi. Bola jismoniy va ruhiy tez o`sadi,nutqi rivojlanadi. Maktabga cha tarbiya yoshida suyagining ko`p qismi yumshoq va egiluvchan tog`aydan iborat.Shuning uchun bu davrda bola bir joyda uzoq tik turib qolmasligi , og`ir yuk ko`tarmasligi , to`g`ri o`tirishni bilishi kerak . Aks holda uning umurqa pog`onasi ,ko`krak qafasi,chanoq va oyoq suyaklari to`g`ri o`smasdan , qiyshayib qolib , qad-qomati buziladi .

Maktab yoshi davri

Bolalikni bu davri 6-7 yoshdan 17-18 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bolaning hayotida va aqliy rivojlanishida keskin o`zgarishlar yuz beradi .Maktabda bola o`qish va yozishni o`rganib oladi.Bola maktab yoshida o`smirlik davrini ham o`taydi. Bu davrda uning ichki sekretsiya bezlari faoliyati kuchayadi,o`sish tezlashib , ikkilamchi jinsiy belgilari rivojlanadi va balog`atga yetadi .

Odam organizmi o`sishi va rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari

Bolaning organizmi uning hayoti davomida bir tikis o`sib rivojlanmaydi. Qizlarning bo`yi 10-12 yoshlarda, o`g`il bolalarniki 12-16 yoshlarda ayniqsa, tez o`sadi.Bo`yning o`sishi 20-25 yoshlarda to`xtaydi odam yoshi ulg`aygan sayin tanasining turli qismlari mutonosibligi ham o`zgarib turadi.



99-rasm. Odam ulg‘aygan sayin tana nisbatining o‘zgarib borishi: *1* — ikki oylik homila, *2* — to‘rt oylik homila, *3* — yangi tug‘ilgan chaqaloq, *4* — ikki yoshda, *5* — olti yoshda, *6* — o‘n ikki yoshda, *7* — yigirma besh yoshda.

Uyga vazifa

67-dars. 179-181 sahifalarni o`qish.

Mavzuni o`qib o`rganish.